

**MUSTAQIL TA'LIM TOPSHIRIQLARINI
BAJARISHNING TA'LIMIY-NAZARIY ASOSLARI
(Nodavlat oily ta'lismuassasalari misolida)**

Botirov Azizbek Mirzakarimovich

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annatatsiya: *Ijodiy izlanishlar, talabalarning mustaqil ta'lism topshiriqlarini bajarish jarayonidagi o'z-o'zini boshqarish tamoyillari haqida so'z yuritiladi. Jahon sivilizatsiyasiga nazar solish shuni ko'rsatadiki, har bir shaxs individuallik xususiyatiga ega ekan, ang avvolo, uning ma'naviy olamini namoyon etuvchi tafakkur tarzi, dunyoqarashining ifodasi kabi jihatlarga nazar solinadi. Shu jihatdan, har bir individ o'z tafakkur dunyosiga ega ekan, uning olam va odamni anglashda tafakkur dunyosi birlamchi darajaga ko'tariladi. Buning asosida esa, shaxsnинг kamolatga etishishi yo'lidagi izlanishlari, o'qib o'rghanishi va o'zligini anglashga bo'lgan ehtiyoj bilan chambarchas bog'liqligi haqidagi tushunchalar bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *barqarorlik, izlanish, ijodkorlik, tafakkur, dunyoqarash.*

**САМОСТОЯТЕЛЬНЫЕ ОБУЧАЮЩИЕ ЗАДАЧИ
УЧЕБНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИСПОЛНЕНИЯ
(В случае негосударственных семейных
образовательных учреждений)**

Ботиров Азизбек Мирзакаримович

Ташкентский Кимё международного университета, научный сотрудник

Аннотация: обсуждаются творческие исследования, принципы самоуправления в процессе выполнения самостоятельных учебных задач учащихся. Взгляд на мировую цивилизацию показывает, что каждый человек обладает индивидуальностью, и в первую очередь рассматриваются такие аспекты, как образ мышления, показывающий его духовный мир, выражение его мировоззрения. В этом отношении, поскольку каждый индивидуум имеет свой собственный мир мысли, его мир мысли поднимается на первичную ступень в его понимании мира и человека. Исходя из этого, тесно связаны понятия поиска человеком зрелости, обучения и необходимости реализации своей личности.

Ключевые слова: *устойчивость, поиск, творчество, мышление, мировоззрение.*

**INDEPENDENT STUDY ASSIGNMENTS EDUCATIONAL
AND THEORETICAL BASIS OF EXECUTION
(In the case of non-state family educational institutions)**

Botirov Azizbek Mirzakarimovich
*Toshkent Kimyo international university,
Independent researcher*

Abstract: creative research, the principles of self-management in the process of performing independent educational tasks of students are discussed. A look at the world civilization shows that every person has individuality, and first of all, aspects such as the way of thinking that shows his spiritual world, the expression of his worldview are looked at. In this respect, as each individual has his own world of thought, his world of thought rises to the primary level in his understanding of the world and man. On the basis of this, the concepts of a person's search for maturity, learning, and the need to realize his identity are closely related.

Key words: stability, search, creativity, thinking, outlook.

Sharq xalqarining hayotigaga yoki jahon sivilizatsiyasiga nazar solar ekanmiz, insoniyatning tinimzsiz harakati, izlanishlari samarasi o'laroq, hayotiy murakkabliklar, ziddiyatlar kurashlar ham maydonga kelganligini inkor etib bo'lmaydi. Insoniyatning tarixidagi bunday xususiyatlar XX asrga kelib yanada reallik kasb etdi, buning boisi uning qalb kechinmalari, harakatlari o'rtasidagi uyg'unlikning asta-sekin tartibsiz halda aks etishi bilan bog'liqdir. Bu qarashlarning zamirida har bir shaxs o'z tafakkuri mahsuli bo'lgan tushunchalra teranroq yondoshish, uni anglash, his etish kabi qator muammolarni ham yuzaga chiqardi.

O'tgan asr boshlaridagi jadidchilik harakatining buyuk namoyondasi, ma'rifatparvar shaxs Mahmudxo'ja Behbudiy qayd qilganidek: "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozumdu. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqalarga paymol bo'lur" [1,2-bet]. O'tgan asr boshlarida qayd etgan bu qarashlarning zamirida, hayotiy haqiqatlar mujassamlashgan edi, chunki dunyoviy fan va limning zaruarti, insonning tafakkur dunyosiga ta'siri kabi xususiyatlarning asosida olamni anglash tushunchasi mujassamlashgan. Zamonaviy ilm va fandan bebahra qolish, bu inson ujun juda katta fofia ekanligini alohida qayd etgan. Shuning uchun asrlar davomida shakllangan falsafiy-ma'rifiy qarashlarning zamirida ilim olish, uning mohiyatini tafakkurda sintezlash, borliqni, o'zlikni anglashga uzviy bog'lanishini ham inkor etib bo'lmaydi.

XIX asr so'ngi choragi va o'tgan asr boshlarida aql-idrokini, barcha imkoniyatini texnika taraqqiyotiga qaratishga intildi va buning uddasidan ham chiqdi. Bundan kelib chiqadigan asosiy maqsad esa, insonlarning mushkulini oson qilish edi. Shu maqsadda qancha-qancha ixtiolar maydonga keldi: elektr energiyasi kashf etildi, ishlab chiqarish dastgohlari takomillashtirildi, sanoat, fan, temir yo'l, transport, radio, telefon va hakozalar yaratildi. Bularning hammasini zamirida limning birlamchiligi, uning mohiyatini, nazariyasini amaliyatga tadbig'i bilan bog'liq ediki, ammo bu tushunchalarni barchasini inson omili bilan yuzaga chiqarish an'anasi alohida qayd etish zarur.

Istiqlol tufayli qadriyatlarimiz asosli tiklanib, yangicha tafakkur tarzi qaror topdi. Barcha sohada bo'lgani kabi, pedagogikada ham jiddiy izlanish, amaliy tushunchalar shakllanib ulgurdiki, buning barchasi insonni, bevosita talabalrning keng dunyoqarashli shaxs sifatida shakllanishiga imkoniyat yaratdi. "XXI asr odami – zamondoshlarimiz bugungi dunyoning olamiy (global) muammolarini bilish, uni echish, kurashish uchun juda yuksak aqliy mustaqillik va aqliy kenglik – boshqa sohalardan xabardorlik, inteliktual salohiyatga ega bo'lishlari talab etiladi" [2, 18-bet].

Asosli qayd qilinganidek, XXI asr insoniyat tafakkuridagi evrilishlarni, uning erk va erksizligini, moddiyat va moddiy boyliklarini yuzaga chiqardi. Bu jarayonda shaxs kategoriyasi, uni g tafakkur dunyosi turfa xil xislatlarini namoyot etib keldi, ammo ongli, tafakkurli shaxsgina o'zining ruhiy-ma'naviy olamini yuzaga chiqarish imkonini yuksaltirib keldi. Bularning barchasida shaxsning mustaqil qarorlari, tushunchalari birlamchilik qila boshladi.

Bilimlarni o'zlashtirishga yordam beradigan psixologik qobiliyatlarni sanab o'tarkan nutq, diqqat, xotira, tafakkur, ijodiy xayol va ijobjiy xususiyatlar – aniq maqsadga intilish, qiziquvchanlik, kuzatuvchanlik, mustaqil fikrlash, ijodiy tafakkur yuritish, o'z fikrini asoslash, mavjud ma'lumotlarni umumlashtirish, guruhlashtirish, mantiqiy xulosalar chiqarish va hokazolarni rivojlantirish asosida shaxsning o'zini rivojlantirish imkoniyatini yuzaga chqarish mumkinligini asoslaydi.

"Zamonaviy tarbiyashunoslik ilmida ta'lim-tarbiyaning vazifasi o'quvchini zarur bilimlar yig'indisi bilan ta'minlash doirasidan chiqib va uning oldiga o'quvchi ma'naviyatini shakllantirish hamda boyitish, o'quvchida bilimlarni izchil ravishda to'ldirish, bilishga bo'lgan ichki ehtiyojni qondirish, mustaqil, mantiqiy, ijodiy fikrlay olish ko'nikmasini shakllantirish kabi sifat jihatdan yangi talablar qo'yilayapti" [3, 12-bet].

Maktabdan o'quvchi o'z ma'naviy olamini boyitishga harakat qilishi, keyinchalik talabalik davriga kelib o'z-o'zini boshqarishdagi mustaqil ko'nikmalarni yuzaga keltirish bilan birgalikda, hukumlar chiqarish, xulosa qilish imkonini kengaytiradi. Bu jarayon esa keyinchalik, talabaning mustaqil fikrlash qobiliyatini yanada teranlashtiradi.

Talabalarning mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish ko'nikmasi ham, ularning maktab davridagi faoliyati bilan chambarchas bog'lanib ketadi. Bu izchillikning mohiyati shundaki, o'quvchida umumta'lim jarayonidayoq, mustqil xulosalar chiqarish imkoniyati kengroq va asosliroq yaratilsa, ularning tushunchalarida ham ovziga xos tafakkur tarzining namoyon bo'lishi kuzatiladi. Buning uchun o'qituvchi o'z fanining xususiyatlaridan, sfitsifikasidan kelib chiqib, muammoli vaziyatlarni yuzaga chiqarishi, bunda talabaning faol ishtirok etishini ta'minlashi, ularning mustaqil tushunchalarini va mulohazalarini boyishiga bevosita asos bo'ladi.

Shu o'rinda poliyak olimi V.Okonning muammoli ta'lim xususiyati haqidagi qarashlariga nazar solaylik: "Muammoli vaziyatlarni tashkil etish, muammoning shakllnishi, bu jarayonda talabalarda ko'rsatilgan yordam, muammo echimining tekshirilishi, bu jarayonda o'lashtirilgan bilmlarni tizimlashtirish va mustahkamlash singari faoliyatlar yig'indisidir" [4, 28-bet].

Darhaqiqat, qo'yilgan muammoning nazariy xusuiyatlaridan kelib chiqib, talabalarning mustaqil qarashlarini mulohazalarini tinglash jarayonida, xulosa va hukumlarning chiqarilishidagi matiqiylik, izchillik kabi xususiyatlarga jiddiy nazar solish zarurati ham yuzaga chiqadi. Har bir tushunchani to'gvri izohlanishi, talabaning mustaiql ishga bo'lgan yondoshuvini ham naoyon etishi, tabiiy hol.

Pedagog, faylasuf olim Ya. Lernerner bu haqidagi qarashlariga diqqat qilinsa masalaning mohiyati yanada teranroq namoyon bo'ladi: "Talaba uchun yangi bo'lgan nazariy va amaliy bilimlarni ta'limning maqsad va vazifalariga monand ravishda o'qituvchi rahbarligidagi izchil faoliyatidir" [5, 67-bet]. Dars jarayonida qo'yilgan muammoning u yoki bu darajada tahlil etilishi talabada ma'lum bir tushunchani shakllanishiga xizmat qiladi, ammo shu mavzuni to'ldirish, qarashlar va xulosalarini boyitish uchun qo'shimcha nazariy-amaliy manbalar bilan shug'ullanishini talab etadi.

Nodavlat oily ta'lim muassasalarining talabalari ham boshqa oily o'quv yurtlarining talabalari barcha huquqlarga ega ekanligini qayd etgani holda, ularning mustaqil ta'lim topshiriqlaning bajarishga, mustaqil xulosalar chiqarishga bo'lgan intilishlarining birlamchilik xususiyatini ham ta'kidlash joizdir. Bu jarayonda ularning doimiy faoliyati, o'zlashtirish jarayonlariga jiddiy e'tibor berishni talab etadi.

Qayd qilingan tushunchalarga asoslangan holda, oliy ta'limning asosiy vazifalaridan biri ham, yuksak ma'naviyatlari, intellektual rivojlangan, ijodiy ishlaydigan mutaxassislarini tayyorlash va ishlab chiqarishga etkazishdan iboratdir. Barcha oliy ta'lim muassasalari har doim nafaqat yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash, shu bilan uzviy birlikda, talabalarda shaxsiy fazilatlar va ijtimoiy faol qobiliyatlarini ham shakllantirish va rivojlantirish zaruratini yuzaga chiqargan.

Shu munosabat bilan, oliy ta'limda talabalarning o'zini boshqarish tizimini rivojlantirish, uning pedagogik salohiyatini chuqur o'zlashtirish, talabalarni ijtimoiy jarayonlarga faol jalb etish va ularning barcha ijtimoiy tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan jarayonlarni ham inobatga olish lozim. Talaba o'zini nazorat qilishning mohiyatini teran anglagan holda harakat qilimog'I, har bir mavzuni o'rganishda olingan tushunchalarni boyitib borishi, bu yuzasidan muloqotlar uyshtirishi, jamoaviy bo'lib bahs-munozaralarni shakllantirish, xulosalar chiqarishga intilishini ham namoyon eta olishi kerak.

Bu jarayondagi tushunchalar esa, talabalar uyushmalarining pedagogik salohiyatini samarali yuzaga chiqarishni talab etadi. "Ma'lumki, odam ongingin yuksak belgilaridan biri uning o'zini anglashdir. O'zini anglash shaxsning muhim belgisi hisoblanadi. Odam o'z tevarak-atrofidagi olamni biluvchi va olamga ta'sir etuvchi subyektdir. Barcha idrok etiladigan, tasavvur qilinadigan narsalar uning uchun obyektdir. Ana shu nuqtaiy nazardan olganda, odamning o'zini anglashi subyektiv tarzda o'zini "men" deb his qilishda ifodalanadi" [6, 140-bet].

Ta'kidlanganidek, inson qachonki o'zligini anglasagina, olam va odamga, atrofga teranroq nazar soladi. Ana shu xususiyatni bolalarda oilada shakllantirish, keyinchalik umumta'lim maktabida rivojlantirish va oily ta'limda esa yanada yuksaltirish yo'lidan borish lozim. Cunki inson ijtimoiy zot bo'lganligi uchun ham, unga o'zligini anglash imkoniyati berilgan. Shuning

uchun faqat ijtimoiy hayotda, shaxslar bilan muloqotda yoki turlicha munosabatda odamning o‘zini anglashi, o‘zini men deb bilishi vujudga keladi va shakllanib beradi. Tushunchalarning zamirida oily ta’limga kirgan, tahsil olayotga talabaning mustaqil ishlarni bajarishgacha bo‘lgan jarayoni, faoliyatni ham muhim rol o‘ynaydi.

Barcha manbalarda inson shaxsi ikki omil vositasida rivojlanib, ko‘nikmalari shakllanib borishi qayd etilganligini kuyzatish mumkin. Bu xususiyatning birinchisi biologic omillarning ta’siri bo‘lsa, ikkinchisi esa, inson tug‘ulib o‘sgan tashqi ijtimoiy muhitning ta’siri o‘zining mohiyatini ko‘rsatadi. Shaxsga uzoq muddat beriladigan ijtimoiy-ta’lim tarbiyaning ta’sirini ham alohida qayd etish lozim. Chunki bola organizmi yillar davomida rivojlanib, tashqi muhitning ta’sirini yaxshiroq, asosliroq anglay boshlaydi. Ana shu anglashning zamirida ham shaxs kamolati, mustaqil qarorlar qabul qilish jarayoni juda muhim hisoblanadi.

Barcha ta’lim muassasalari kabi nodavlat oily ta’lim muassalari rivojining hozirgi bosqichida talabalar tashabbuskorligi, faolligi, o‘zini o‘zi nazorat qilishi kabilar muhim o‘rin tutadi. Ular o‘z kelajaklarini, faoliyatini ijtimoiy ehtiyojlaridan kelib chiqib, ijtimoiymadaniy muhiit bilan uyg‘unlashgan holda quradilar. Nodavlat oily ta’lim muassalarida talabalarning topshiriqlarni mustaqil bajarish, o‘zini nazorat qilishni rivojlantirish asosida tadqiqot muammosi aniqlanadi, bu talabalarning topshiriqlarni mustaqil bajarish va o‘zini nazorat qilishning pedagogik salohiyatini yangilash mumkin bo‘lgan sharoitlarni aniqlashdan iborat bo‘ladi.

Ayniqsa, talabalarning mustaqil o‘qishini tashkil etish va bu jarayondagi ularning faoliyatini nazorat qilish, keyinchalik ularning o‘zlarida hokum va xulosalalar chiqarish imkonini kengaytiradi. Talabalarda immunitet shakllanadiki, bu esa ularning mustaqil harakat qilishga ishonchni uyg‘tadi. Aynan shu holat ularning salohiyatini, ijodiy muloqat qobiliyatini, mustaqil faoliyat yuritish holatlarini teranroq anglash imkonini beradi.

Talabaning mustaqil tushunchasi uning hukumlarida, anglash jarayoni bilan chambarchas bog‘liq. Shuning uchun talabaning hukumlari, xulosalari bevosita uning tafakkur dunyosi bilan uzviy birlikda shakllanadi. Shu jihatdan: “Hukmda biror nima haqida yoki biror kimsa haqida tasdiqlangan yoki inkor qilingan narsa hukm mavzui bo‘ladi. Hukmlarda buyumda biror belgilarning borligi yoki yo‘qligi – uning boshqa buyumlar bilan bog‘lanishi va munosabatlari tasdiqlanadi yoki inkor qilinadi. Shu sababli hukmlar sifatiga qarab bir-biridan farq qilinib, tasdiqlovchi hukm va inkor qiluvchi hukm deb aytildi. Shu hukmlarda tasdiqlangan yoki inkor qilingan narsalar esa hukmlarning mazmunini tashkil qiladi” [7, 195-bet].

Asosli qayd qilinganidek, hukm chiqarish tasdiqlash va inkor etish jarayonini yuzaga chiqarar ekan, uning tafakkurini, dunyoqarashini shakllanishi va ifoda tarzini ham namoyon etishga harakat qiladi. Chunki tafakkur qilgan talaba olamni, insonni, belgilangan mavzularning asosini anglash bilan dialektik birligida, mustaqil qarashlarini yuzaga chiqaradi. Bu qarashlarning zamirida talabaning dunyoqarashi, uning anglash tamoyili birlamchi darajaga chiqishini ham ta’minlaydi. Talabaning mustaqil o‘zlashtirish jarayoni uning tafakkuruini bevosita va bilvosita yuzaga chiqirash imkoniyatini kengaytiradi. Chunki belgilangan fanning zaruriy mavzularini mustaqil o‘rganish, talabaning tushunchasini

teranlashtiradi, hukmlar chiqarishga imkon beradi. Bu holatlar talabaning mustaqil qarashlarini bayon etishga asos bo'ladi.

Talabalalar olgan bilimlarni chuqurroq va to'liqroq, ongli va samarali bo'lishi uchun o'quv faoliyati nazoratiga alohida e'tibor qaratilishi lozim. Bu nazorat "tashqi" - o'qituvchi tomonidan va "ichki" - talabaning o'zi tomonidan bo'lishi mumkin. O'qituvchi har doim ham har bir talabaning bilimlarni o'zlashtirish jarayonini nazorat qila olmaydi. Talabalarda o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirish bu muammoning eng samarali yechimi bo'lishi mumkin.

Talabalarda o'zini nazorat qilish ko'nikmalarining mavjudligi mustaqil ta'lim topshiriqlarining qanday tashkillashtirilishi bilan belgilaniladi. Mustaqil ta'lim topshiriqlarilash, mehnat qilish, o'z faoliyatini baholash, o'z ishlarini va harakatlarini nazorat qilish qobiliyati muammoni hal qilishning eng to'g'ri yechimi ekanligi ko'plab olimlar tomonidan e'tirof etilgan. Bo'lajak o'qituvchilarida o'zini nazorat qilish ko'nikmalarini shakllantirishning didaktik shartlari kam o'rnatilganligi, talabalarni o'zini boshqarishga tayyorlash tizimi ishlab chiqilmaganligi, o'zini nazorat qilishning o'quv jarayonida o'rni va ahamiyati pastligini bildiradi. Mavjud muammolarning yechimi talabalar tomonidan mustaqil amalga oshirilishining psixologik-pedagogik xususiyatlari yetarlicha o'rnatilgan.

Ta'lim jarayonidagi o'zgarishlarnig, islohatlarning barchasi talabalarga kengroq imkoniyat berishga qaratilganligini ham alohida qayd etish lozim. Taraqqiy etgan jamiyatning yuzaga kelishi uchun bugungi yoshlarimiz, ilmi, salohiyatli shaxslar sifatida shakllangan bo'lishi kerak. Shaxsni har tomonlama rivojlantirish g'oyasini amalga oshirish, bu esa mustaqil hayotga qadam qo'ishga intilayotgan talabalarining ham o'zini boshqarish, asosli xulosalar chiqarish, erkin fikrlash zaruratini yuzaga chiqarmoqda.

Bu kabi muammoni hal qilishda tashabbuskorlik maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab va oliy ta'lim dargohlariga tegishli bo'ladi. Chunki o'sib kelayotgan avlod taqdiri uzluksiz - ta'lim tizimi bilan uzviy birlikda bo'lsagina, uning mahiyati va samarasini yorqinroq namoyon bo'ladi. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida pedagog kadrlar tayyorlashning mavjud tizimi, maktablarda o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish, davlat tomonidan qo'yilgan barcha talablarga to'liq javob berishga qaratilgan choralar, tajribalar amalgam oshirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Behbudiy M. Ehtiyoji millat / Samarqand gazetasi, 1913-yil, 30-iyul.
2. Faniyev I. Millat va axloq. Monografiya. – Toshkent, “Muharrir” nashriёti, 2022. 15-bet.
3. Husanboyeva Q. Adabiyot o‘qitish metodikasi va muammoli ta’lim. – Toshkent, “Innovatsiya-Ziyo”, 2022. – 404 bet.
4. Okonь B. Основы проблемного обучения. – Москва, Просвещение, 1988. – 320 с.
5. Lerner I.Y. Проблемное обучение. – Москва, Просвещение, 1974. – 298 с.
6. Mo‘minova L.R va boshqalar. Maxsus psixologiya. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashri, 2022. – 272 bet.
7. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiyl psixologiya. Pedagogika va psixologiya bakalavriat ta’lim yo‘nalishi talabalari uchun darslik. – Toshkent, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2021. – 500 bet.
8. Маджидова, Р. У., Мухиддинаева, Х. С., & Султонова, Ш. М. (2015). Тилшуносликка кириш.
9. Маджидова, Р. (2018). РЕЧЕВОЕ ПОВЕДЕНИЕ ЧЕЛОВЕКА В СОЦИОЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ И ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ ТРАКТОВКАХ. Farg'onadavlat universiteti, (1), 20-20.
10. Djumaniyozova, Z. (2024). PROVERBS AS AN OBJECT OF AXIOLOGICAL LINGUISTICS. Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 5(01), 56-65.
11. Urishevna, M. R. (2019). Representation of the linguistic world picture through a human factor. RELIGACIÓN. Revista de Ciencias Sociales y Humanidades, 4(15), 234-240.
12. Madjidova, R. U. (2020). Antropotsentrik maqollarning aksiologik tadqiqi (o ‘zbek va rus tillari materiallari asosida). Filol. fan. dok.... diss. avtoref.
13. Маджидова, Р. У. (2024, May). АКСИОЛОГИЧЕСКАЯ ШКАЛА ОЦЕНКИ ОБРАЗА ЧЕЛОВЕКА В АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКИХ ПОСЛОВИЦАХ УЗБЕКСКОГО И РУССКОГО ЯЗЫКОВ. In Konferensiyalar| Conferences (Vol. 1, No. 10, pp. 501-504).
14. Urishevna, M. R. N. (2024). THEORETICAL BACKGROUND AND THE ROLE OF TERMINOLOGY IN LINGUISTICS. worldly knowledge conferens, 6(2).
15. Majidova, R. U. (2023). LANGUAGE AS A COMMUNICATION TOOL: UNDERSTANDING ITS FUNCTIONS AND IMPLICATIONS. " GERMANY" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS, 9(1).
16. Mamatov, G. B. R. (2024). IMPLEMENTATION OF THE EDUCATION SYSTEM OF EUROPEAN COUNTRIES. Innovations in Technology and Science Education, 3(19), 135-139.
17. Bozorova, G. M., Mamatov, R. R., Adaxamjonov, A. A., & Jaloldinov, M. S. (2024). THE USE OF INFORMATION TECHNOLOGY IN THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF FOREIGN LANGUAGE TEACHERS. Science and innovation, 3(Special Issue 19), 352-354.

18. Mukhammadalievna, B. G. (2023). THEORETICAL VIEWS ON PROVERB IN GERMAN AND UZBEK. International journal of advanced research in education, technology and management, 2(4).

19. Shavkatovna, T. M. (2023). BO'LAJAK PEDAGOG VA PSIXOBO'LAJAK PEDAGOG VA PSIXOLOGLARDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATIV SIFATLARNING O'RNI LOGLARDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA KOMMUNIKATIV SIFATLARNING O'RNI. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 1(3), 6-8.

20. Shavkatovna, T. M. (2021, June). THE IMAGE OF A BEAST IN THE WORK OF MY MOTHER. In Archive of Conferences (pp. 22-24).

21. Аблаева, Н. К. (2024). ПРОБЛЕМЫ ИЗУЧЕНИЯ ЛИТЕРАТУРЫ В СОВРЕМЕННОЙ ШКОЛЕ. INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY, 2(5), 152-156.